

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

**2025**

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI**

*№ 9 (5) – 2025*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**TOSHKENT-2025**

## **BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

## **TAHRIR HAY'ATI:**

### *07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

### *08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

### *09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

### *10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

#### *12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

#### *13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

#### *19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

#### *22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

#### *23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

---

## OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

---

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

## **Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

## **Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## MUNDARIJA

### 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li*

THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA:

THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS ..... 9-13

*Xurramov Xamid Bobokul o'g'li*

AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN? ..... 14-18

*Zikirova Maxprat Soliyevna*

HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI

VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI ..... 19-25

### 08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

*Амбарцумян Анастас Алексеевич*

СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ

ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА ..... 26-38

*Rajabov Alibek Xushnudbekovich*

ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOYIY-IQTISODIY

RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI ..... 39-46

*Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna*

OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES

IN TEXTILE ENTERPRISES ..... 47-52

*Shixiyev Raxim Muhammedovich*

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING

RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

ISTIQBOLLARI ..... 53-60

*Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna*

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK

VA STATISTIK TAHLILI ..... 61-66

### 09.00.00 – FALSAFA FANLARI

*Navro'zova Gulchehra Nigmatovna*

BAHOUDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI ..... 67-70

*Yuldasheva Diloram Yuldashevna*

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING

DOLZARB MASALALARI ..... 71-74

*Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich*

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI ..... 75-80

### 10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

*Ayimbetova Zamira*

BADIIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH

VA TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI ..... 81-87

|                                                                                                                           |         |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i><br>ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI .....            | 88-92   |
| <i>Петрисянц Эрнст</i><br>СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА .....                                          | 93-99   |
| <i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i><br>NAVOIY VA TILIMIZ .....                                                          | 100-103 |
| <i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i><br>ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI<br>VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI ..... | 104-107 |

## **12.00.00 – YURIDIK FANLAR**

|                                                                                                                                                                                         |         |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Firuz Muxitdinova</i><br>JAMIYAT BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI<br>HAQIDA TAHLILYI MULOHAZA .....                                                             | 108-113 |
| <i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i><br>NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA<br>INSTITUTINING ROLI .....                                                    | 114-123 |
| <i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i><br>IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT<br>TASHKILOTLARI FAOLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI .....              | 124-135 |
| <i>Umarova Barno Akbutayevna</i><br>FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIIY MUHITGA NISBATAN<br>YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI<br>MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI ..... | 136-143 |
| <i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i><br>ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN<br>PROKUROR NAZORATI .....                                                       | 144-150 |
| <i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i><br>ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ<br>VA MILLIY QONUNCHILIK .....                                                                    | 151-164 |
| <i>Karamanova Benazir</i><br>YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING QONUN IJODKORLIGIDA ISHTIROKI .....                                                                                        | 165-169 |
| <i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i><br>JINOYATLARNI OLDINI OLISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING<br>PREVENTIV XUSUSIYATLARI .....                                                          | 170-177 |
| <i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i><br>NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA .....                                                                                          | 178-181 |

## **13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

|                                                                                                                                                          |         |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|
| <i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i><br>VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING<br>JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH ..... | 182-185 |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------|

*Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna*

AKADEMIK LITSEYLARDA “ATOM VA YADRO FIZIKASI BO‘LIMI MAVZULARINI”  
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O‘QITISH METODIKASI. (“ELEMENTAR  
ZARRALAR «BOG‘I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR  
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR  
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O‘ZARO  
TA‘SIRNING TASHUVCHILARI” MAVZUSI MISOLIDA) ..... 186-197



**Received:** 15 August 2025  
**Accepted:** 30 August 2025  
**Published:** 15 September 2025

*Article / Original Paper*

## **CURRENT ISSUES OF INFORMATION SECURITY IN UZBEKISTAN**

**Yuldasheva Diloram Yuldashevna**

Samarkand State Medical University,

Department of Social Sciences and Humanities, Senior Lecturer

**Abstract.** This article analyzes the socio-philosophical aspects of ensuring information security in Uzbekistan. The 21st century can be characterized as the era of the "information society", during which information has become a powerful tool that has both a positive and negative impact on human life, thinking and the development of society. From this point of view, issues of ensuring information security, protecting national interests and protecting the consciousness of young people from various destructive ideas are becoming increasingly important. The article emphasizes the inextricable link between information policy and national security, and shows the complexity of the issue using the example of negative trends in the Internet space - fake news, destructive ideas, uncivilization under the guise of mass culture and threats such as cybercrime. It also analyzes the main strategies for ensuring information security at the state level - such measures as protecting personal data, strengthening the security of computer networks, combating cybercrime, expanding international cooperation.

**Keywords:** information security, national interest, information policy, cybercrime, Internet threats, destructive ideas, ideological immunity, information and communication technologies, international cooperation, national values.

## **O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING DOLZARB MASALALARI**

**Yuldasheva Diloram Yuldashevna**

Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti,

ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrası, katta o'qituvchi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada O'zbekistonda axborot xavfsizligini ta'minlashning ijtimoiy-falsafiy jihatlari tahlil qilingan. XXI asrni "axborotlashgan jamiyat" davri sifatida tavsiflash mumkin bo'lib, ushbu davrda axborot insoniyat hayoti, tafakkuri va jamiyat taraqqiyotiga ijobiy hamda salbiy ta'sir o'tkazuvchi qudratli vositaga aylandi. Shu nuqtai nazardan, axborot xavfsizligini kafolatlash, milliy manfaatlarini himoya qilish hamda yoshlar ongini turli buzg'unchi g'oyalardan asrash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Maqolada axborot siyosati va milliy xavfsizlik o'rtasidagi uzviy bog'liqlik yoritilib, internet makonidagi salbiy oqimlar - yolg'on xabarlar, buzg'unchi g'oyalar, ommaviy madaniyat niqobi ostidagi madaniyatsizlik va kiberjinoyatchilik kabi tahdidlar misolida masalaning murakkabligi ko'rsatib berilgan. Shuningdek, davlat miqyosida axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy strategiyalari - shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, kompyuter tarmoqlarini xavfsizligini mustahkamlash, kiberjinoyatlarga qarshi kurashish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish kabi chora-tadbirlar tahlil qilingan..

**Kalit so'zlar:** axborot xavfsizligi, milliy manfaat, axborot siyosati, kiberjinoyatchilik, internet tahdidlari, buzg'unchi g'oyalar, mafkuraviy immunitet, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xalqaro hamkorlik, milliy qadriyatlar.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N10>

**Kirish.** Barchamizga ma'lumki hozirgi hayotimizning barcha sohalarida axborot va kompyuter texnologiyalarining kirib yanada rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin. Hech bir to'siqlarsiz biz XXI asrni axborotlashgan jamiyat asridir deyishimiz mumkin. Shuni aytib o'tish

kerakki ushbu zamonaviy axborotlashgan jamiyatimizda axborotni turli xil ijobiy va salbiy talqinda ko'ramiz. Har bir jamiyatda axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlash muhim va dolzarb muammodir. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham axborot sohasida milliy xavfsizlikni ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Axborot sohasidagi milliy xavfsizlik bu – bugungi kunimizdagi ijtimoiy tarmoqlar shuningdek turli xil saytlarda huquqlarimizni muhofaza qiluvchi vosita hisoblanadi. "Axborot ijtimoiy iqtisodiy madaniy taraqqiyotning muhim omilidir. Shu sababli ham inson tafakkuriga turli yo'nalishlarda ta'sir etuvchi insoniyatning hayoti va taqdirini u yoki bu tomonga burib yuboruvchi goh ijobiy goh salbiy mohiyat kasb etuvchi qudratli vositaga aylandi". Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyev "Axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasi qanchalik rivoj topgani sari, uning afzalligi va qulayliklaridan foydalanish bilan bir qatorda butun mamlakatimizda axborot xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb masalaga aylanib bormoqda, ushbu soha albatta rivojlanishi kerak va buni qilamiz" , deb ta'kidlaydilar[1]. Prezidentimiz aytganlaridek axborot texnologiyalari rivojlangani sari, uning ijobiy va salbiy tomonlari ham o'z aksini topadi. Shuning uchun ham mamlakatimizda bu sohaga katta e'tibor qaratilmoqda.

Axborot xavfsizligi davlatning axborot siyosati bilan bevosita bog'liq bo'lib, milliy xavfsizlikni ta'minlashning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Axborot siyosati, o'z navbatida, davlatning milliy manfaatlari hamda ichki va tashqi siyosatini shakllantiruvchi muhim omil bo'lib, jamiyatning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi[2].

Zamonaviy davrda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan bir qatorda texnologiyalar va internet tarmog'i ham insonlar o'rtasidagi munosabatlarga bevosita ta'sir o'tkazib, ular orqali ijobiy hamda salbiy oqibatlarni yuzaga keltirmoqda. Internet makonida turli jinoyatchilik faoliyati, buzg'unchi g'oyalar, firibgarlik hamda kiberjinoyatlarning ko'payishi buni yaqqol tasdiqlaydi. Shu boisdan ham internetdagi turli tahdidlardan himoyalaniish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Bugungi kunda inson, davlat va jamiyat hayotiga eng katta zarar yetkazayotgan omil bu soxta va yolg'on xabardir", degan fikrlari mazkur muammoning naqadar dolzarb ekanini ko'rsatadi. Demak, internet tahdidlari hozirgi davrning eng muhim xavfsizlik muammolaridan biri sifatida baholanishi zarur[3].

Mazkur masalaga oid qimmatli fikrlar Muhammad Amin Yahyoning "Internet tahdidlaridan himoya" nomli asarida ham keng yoritilgan. Unda internet orqali yuzaga kelayotgan tahdidlar, yoshlarning ongiga salbiy ta'sir o'tkazuvchi buzg'unchi g'oyalar, shuningdek, "ommaviy madaniyat" niqobi ostida tarqalayotgan madaniyatsizlikning zararli oqibatlari hayotiy misollar asosida tahlil etilgan. Ushbu tahdidlarga qarshi kurashishda yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, milliy va diniy qadriyatlarga asoslangan g'oyaviy-ma'naviy barqarorlikni mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi[4].

Innovatsion texnologiyalar imkoniyatlarining kengayib borishi natijasida zamonaviy davrda axborot tizimlariga qarshi tahdidlar qatoriga yangi ko'rinish — kiberjinoyatchilik qo'shildi. Kiberjinoyatchilik — bu ijtimoiy tarmoqlar va mobil qurilmalar orqali noqonuniy tarzda amalga oshiriladigan harakatlar majmui bo'lib, bunday faoliyat bilan shug'ullanuvchilar kiberjinoyatchilar yoki xakerlar deb ataladi. Ularning asosiy maqsadi foydalanuvchilarning bank hisoblari, shaxsiy ma'lumotlari va maxfiy resurslarini egallab, noqonuniy daromad olishdan iboratdir. Shu bois kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish davlat miqyosidagi dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi.

Ilmiy adabiyotlarda kiberjinoyatchilikka quyidagicha ta'rif beriladi: "Kiberjinoyatchilik – bu axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakon vositalari, dasturiy ta'minot va texnik qurilmalardan foydalanish orqali amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi" [5].

Axborot xavfsizligini ta'minlashda turli yondashuv va usullar mavjud bo'lib, ular asosan axborotning foydalanuvchanligi, butunligi va maxfiyligini kafolatlashga qaratilgan[8]. Foydalanuvchanlik — foydalanuvchilarning axborotdan erkin, to'g'ri va samarali foydalanish imkoniyatini bildirsa, butunlik axborotning buzilmasligi va soxtalashtirilmasligini anglatadi, maxfiylik esa uning ruxsatsiz shaxslarga oshkor qilinmasligini ta'minlaydi.

Bugungi kunda internet tarmoqlari orqali bunyodkorlik g'oyalari bilan bir qatorda vayronkor g'oyalar ham tarqalmoqda. Bunday salbiy oqimlar davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalariga jiddiy tahdid soladi[6]. Shu sababli internet xavflaridan himoyalaniish, axborot sohasida milliy xavfsizlik masalasining dolzarbligini keng jamoatchilikka yetkazish, aholining kompyuter savodxonligini oshirish va ijtimoiy tarmoqlardan xavfsiz foydalanish madaniyatini targ'ib qilish zarur.

Ayniqsa, yoshlar ongida milliy g'oya va qadriyatlarga asoslangan tarbiyani mustahkamlash, ularning ma'naviyatini yuksaltirish hamda axborot makonidagi yot g'oyalardan himoyalaniish immunitetini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

**Xulosa.** Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, axborot xavfsizligini ta'minlash hamda internet makonidagi tahdidlardan himoyalaniish masalalari bugungi davrning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biridir. Mazkur muammo davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik subyektlari va fuqarolar e'tiborini talab qiladigan keng qamrovli vazifa hisoblanadi. Axborot xavfsizligi strategiyalari shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, tarmoq xavfsizligini mustahkamlash, kiberjinoyatlarga qarshi samarali choralarni qo'llash va boshqa ko'plab yo'nalishlarni qamrab oladi.

Shu bilan birga, yangi texnologiyalarni muntazam kuzatib borish, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish, tarmoqlarni monitoring qilish hamda xavfli jarayonlarni aniqlash mexanizmlari milliy xavfsizlikni ta'minlash tizimining muhim bo'g'inlarini tashkil etadi. Axborot xavfsizligini kafolatlashda eng asosiy vositalardan biri kompyuter tarmoqlarini himoyalash bo'lib, bu borada davlat, korxonalar va turli xalqaro tashkilotlar o'zlarining IT infratuzilmalarini kuchaytirishga yo'naltirilgan ilg'or texnologiyalarni joriy etmoqdalar.

Alohida ta'kidlash lozimki, kiberxavfsizlik sohasida xalqaro hamkorlik dolzarb ahamiyat kasb etadi. Kiberhujumlar vaqtida davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi, xavfsizlik standartlari bo'yicha o'zaro tajriba almashish va qo'shma amaliyotlarni yo'lga qo'yish global miqyosda axborot xavfsizligini mustahkamlashning muhim omillaridan biridir.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. To'raqulov H., Xolmuminov B. Axborot xavfsizligi va kiberxavfsizlik asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Sodiqov A., Abdurahmonov M. Axborotlashgan jamiyat falsafasi: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Ma'naviyat, 2019.
4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. Castells M. The Information Age: Economy, Society and Culture. – Oxford: Blackwell, 2010.

6. Qodirova D., Ochildiyev M. Globalizatsiya sharoitida axborot xavfsizligi muammolari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
7. Yuldasheva D. Philosophical Aspects of Bioethics Problems in Modern Science. – 2023.
8. Yuldasheva D. Bioethics in the context of modern science //American Journal of Research in Humanities and Social Sciences. – 2022. – Т. 6. – С. 49-54.
9. Юлдашева Д. Ю. Цифровые технологии в учебном процессе в условиях пандемии //Конференция состоялась. – 2022. – Т. 5. – С. 100.
10. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 17-20.
11. Ризаев И. И. Синергетический подход к самоорганизации социальных систем //Редакционная коллегия. – 2020. – Т. 294.
12. Усмонов Ф. Н., Усмонова Л. Р. Рациональный анализ восточной миниатюры //Молодой ученый. – 2016. – №. 2. – С. 987-991.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 9 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Bog'lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).